

JAMIYATDA HUQUQIY ONG VA HUQUQIY MADANIYAT DOLZARB MASALA

Murotova Sarvinoz Qobiljon qizi

Fargʻona viloyati yuridik texnikumi “Sud-huquqiy faoliyat” yoʻnalishi
1-bosqich 32-guruh oʻquvchisi

Annotatsiya:

Ushbu maqolada huquqiy ong va huquqiy madaniyat toʻgʻrisida qisqacha tushuncha berilib, jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishda taʼlim muassasalarining oʻrni xususida fikrlar bildirilgan.

Kalit soʻzlar: huquqiy ong, huquqiy madaniyat, huquqiy savodxonlik, huquqiy taʼlim va tarbiya, huquqiy immunitet, taʼsirchan mexanizm.

Аннотация:

в данной статье дается краткое представление о правосознании и правовой культуре, высказываются мнения о роли образовательных учреждений в повышении правосознания и правовой культуры в обществе.

Ключевые понятия: huquqiy ong, huquqiy madaniyat, huquqiy savodxonlik, huquqiy taʼlim va tarbiya, huquqiy immunitet, taʼsirchan mexanizm.

Abstract:

This article provides a brief understanding of legal consciousness and legal culture and comments on the role of educational institutions in raising legal consciousness and legal culture in society.

Key concepts: legal consciousness, legal culture, legal literacy, legal education and upbringing, legal immunity, influential mechanism.

Bugungi kun voqeliklaridan maʼlumki, jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirib borish qonun ustuvorligini taʼminlash va qonuniylikni mustahkamlashning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Shunday bo'lsa-da, hanuzgacha inson huquq va erkinliklariga hurmat munosabatini shakllantirishga, aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga, jamiyatda fuqarolarning huquqiy savodxonligi darajasini oshirishga to'sqinlik qiluvchi bir qator muammo va kamchiliklar uchrab turibdi.

Bu esa o'z-o'zidan huquqiy madaniyatni yuksaltirishda, dastavval, huquqiy ta'lim va tarbiya borasidagi ishlarni amalga oshirishda suskashtlikka yo'l qo'ymaslik talab etilmoqda. Vaholanki, ko'p yillar davomida huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish masalasiga huquqni muhofaza qiluvchi organlar va ba'zi organlarining vazifasi sifatida qarab kelindi hamda bunda oila, mahalla va fuqarolik institutlarining ishtiroki yetarlicha ta'minlanmadi.

Yoshlarning huquqiy tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarga nisbatan huquqiy immunitetni shakllantirish, har bir shaxsda qonunlarga va odob-axloq qoidalariga hurmat, milliy qadriyatlarga sadoqat, huquqbuzarliklarga nisbatan murosasizlik hissini uyg'otish ishiga kompleks tarzda yondashilmadi. Huquqiy ong va huquqiy madaniyat saviyasi qabul qilingan qonunlar soni bilan emas, balki ushbu qonunlarning to'liq ijro etilishi bilan belgilanadi. Ushbu muhim ishda odamlarda qonunlarga va normativ hujjatlarga nisbatan hurmat hissini tarbiyalash alohida ahamiyatga ega.¹

Aholining huquqiy bilimlarini oshirishga doir vazifalarning umumiy tusda belgilanganligi hamda ularni amalga oshirishning aniq ta'sirchan mexanizmi mavjud emasligi jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish borasidagi ishlarning samarasiz olib borilayotganligini ko'rsatdi.

Aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga doir ishlar samaradorligini yanada takomillashtirish, fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar bilan uyg'un ravishda huquqiy bilimlarini oshirib borishning zamonaviy usullarini joriy etish, shuningdek, aholini, ayniqsa, yoshlarni zararli axborotlardan himoya qilish bo'yicha mustahkam huquqiy immunitetni shakllantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi 2019-yil 9-yanvardagi PF-5618-son Farmoni² qabul qilindi va unda

¹ N. M. Umurzakova Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishda huquqiy ta'lim va tarbiyaning uzviyligini ta'minlash /Republican Scientific and Practical Conference / Volume 3 | TSTU Conference 2 | 2022. 294-bet.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi 2019-yil 9-yanvardagi PF-5618-son Farmoni.



jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan bir qator vazifalar ko'rsatib berildi.

Huquqiy ong deganda biz ijtimoiy ong shakllaridan biridir, ya'ni bu kishilarning huquq, qonunga bo'lgan munosabatlarini ifodalaydigan qarashlari, g'oyalari yig'indisini tushunamiz.

Huquqiy madaniyat esa – shaxsning qonun, davlat tomonidan o'rnatilgan tartib-qoidalarga rioya etishdagi xulqi, munosabatini bildiradi. Huquqiy madaniyat kishi umumiy madaniyatining tarkibiy qismi hisoblanib, huquqiy madaniyatli bo'lish uchun qonunga rioya etish, qonun asosida ish tutish lozim. Huquqiy madaniyatlilik nafaqat o'z haq-huquqlarini bilish, uni anglab yetish, balki el-yurtga fidoyilik, halollik, o'zgalar huquqini hurmat qilish, Vatanga sadoqat va ezgu ishlarni hayotiy tamoyilga aylantirib olinganligini ham bildiradi. Huquqiy madaniyatga ega bo'lishda huquqiy ongning o'rni muhimdir.³

Huquqiy ta'lim va tarbiya jarayonida muayyan shaxsning hayotiy barkamollik sifatleri shakllanadi, jamiyatda mavjud huquqiy ideallarga nisbatan daxldorlik tuyg'usi shakllanadi. Shaxsni huquqiy tarbiyasi jarayonini tashkil etish unda ma'lum ma'naviy, ma'rifiy, ijtimoiy, madaniy, axloqiy va irodaviy fazilatlarni, xislatlarni qaror toptiradi.⁴

Tabiiyki, jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishning turli uslub va vositalari ko'p. Bunda eng muhim o'rinni ta'lim muassasalarida olib boriladigan ta'lim jarayonlari tashkil etadi. Maktabgacha ta'lim muassasalarida, maktablar, professional ta'lim muassasalari hamda oliy ta'lim muassasalarida davlat ta'lim talablari va davlat ta'lim standartlaridan kelib chiqib huquqiy bilimlar beriladi, bu jarayonda ularga ularning dunyoqarashlarining shakllanish darajalari doirasida, avvalo, konstitutsiyamizda mustahkamlangan me'yorlarning mazmun-mohiyatini barcha uchun tushunarli tilda mukammal o'rgatish lozim deb o'ylaymiz. Chunki huquqshunoslik ta'lim muassasalaridan tashqari ta'lim muassasalarida Respublika qonunchiligi haqida batafsil ta'lim berilmasligini hisobga olsak, konstitutsiyadagi me'yorlar barcha qonunchilik o'zaklarini tashkil qiladi hamda oddiy fuqarolarda qonunchiligimiz haqida muayyan bilimlarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

³ To'rayeva S.S., Shoimqulova Z.S. Ta'lim tizimida yoshlarning huquqiy madaniyatini shakllantirish usullari. Zamonaviy ta'lim / Sovremennoye obrazovaniye 2016, 4. 4-5-betlar.

⁴ A.I.Saidqosimov. Huquqiy madaniyat va huquqiy tarbiya asoslari. O'quv qo'llanma. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. Toshkent, 2021. 168-bet.



Yoshlarda huquqiy madaniyatni shakllantirish uchun quyidagi manbalardan foydalanish juda katta samara beradi. Bular:

- buyuk allomalarning o'g'itlari, g'oyalari va asarlari;
- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari, nutqlari va ma'ruzalari;
- O'zbekiston Respublikasi ratifikatsiya qilgan xalqaro konvensiyalar;
- fanlarga oid darsliklar, adabiyotlar.⁵

Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish masalasi nechog'lik dolzarb masala ekanligini O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 24 maydagi PF-80-son "Ma'muriy islohotlar doirasida adliya organlari va muassasalarining mas'uliyatini yanada oshirish hamda ixcham boshqaruv tizimini shakllantirish to'g'risida"gi Farmoni qabul qilinganligi hamda unda belgilab berilgan vazifalarning qanchalik muhimligidan ham ko'rish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 24 maydagi PF-80-son "Ma'muriy islohotlar doirasida adliya organlari va muassasalarining mas'uliyatini yanada oshirish hamda ixcham boshqaruv tizimini shakllantirish to'g'risida"gi Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi 2019-yil 9-yanvardagi PF-5618-son Farmoni.
3. N. M. Umurzakova Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishda huquqiy ta'lim va tarbiyaning uzviyligini ta'minlash /Republican Scientific and Practical Conference / Volume 3 | TSTU Conference 2 | 2022. 294-bet.
4. To'rayeva S.S., Shoimqulova Z.S. Ta'lim tizimida yoshlarning huquqiy madaniyatini shakllantirish usullari. Zamonaviy ta'lim / Sovremennoye obrazovaniye 2016. 4-5-betlar.
5. A.I.Saidqosimov. Huquqiy madaniyat va huquqiy tarbiya asoslari. O'quv qo'llanma. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. Toshkent, 2021. 168-bet.

⁵ To'rayeva S.S., Shoimqulova Z.S. Ta'lim tizimida yoshlarning huquqiy madaniyatini shakllantirish usullari. Zamonaviy ta'lim / Sovremennoye obrazovaniye 2016, 4. 5-betlar.